

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor \_\_\_\_\_ Sh. Sirojiddinov

2019 - yil “1” 07

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2019 - yil “4” 10

Ro‘yxatga olindi: № MD-5A120101-2.02

2019 - yil “14” 08

**O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI  
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	– Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000	– Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120101	– Adabiyotshunoslik (Oliy adabiyot kursi)

**Toshkent – 2019**

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019 - yil 17.08 dagi 4 sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 - yil " 4 " 10 dagi 892 - sonli buyrug'ining 2 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

Jabborov N – ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

Sodiqov Q. – TDSHI professori, filologiya fanlari doktori

Amonov Sh. – ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 - yil " 1 " 07 dagi 11 - sonli majlis bayonnomasi).

K.eli chiq

A. P. Ibratov

## I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Mazkur dastur o'zbek adabiyoti tarixi fanining dolzarb muammolari, ma'lum davr adabiy-madaniy muhitining o'ziga xosligi haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot berishi bilan dolzarbdir. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan muammolarining milliy ma'naviyat va qadriyat masalalari bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyatga ega.

“O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani mutaxassislik fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, adabiyotning turli fanlar va san'atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risida ma'lumot beradi. Tinglovchilar bu fanni o'rganish orqali adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladilar.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad – badiiy asami tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish fanning asosiy maqsadi sanaladi.

Fan bo'yicha tinglovchining bilim, ko'nikma va malakalariga ushbu talablar qo'yiladi. **Tinglovchi:**

- mumtoz adabiyot namunalari tarixiy poetika talablariga mos ekanligini, adabiyot nazariyasi tarixini, adabiyotshunoslik maktablarini, adabiyotshunoslik metodlarini, o'zbek adabiyotshunoslarining asarlarini jahon nazariy tafakkuri asosida talqin qilishni **tasavvurga ega bo'lishi;**

- badiiy asarni tahlil qilishda tarixiy poetika asoslari sanalgan janr, shakl va uslub mohiyatini anglash, adabiyot tarixini adabiyot nazariyasi bilan bog'liq holda tushuntira olish, ijodkor uslubini aniq ajrata olish, ijodiy uslublarni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- adabiy tur va ifoda shakllarini o'zaro farqlash, ularning xos xususiyatlarini belgilay olish, ijodkor badiiy mahoratining shakllanishida ishtirok etuvchi poetik komponentlarni tahlil qila olish, poetik jarayonda adabiy muhit, ijodiy maktab va an'analarning o'rnini aniqlash, tanlangan mavzu yuzasidan umumlashma ilmiy xulosalar chiqara bilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

### **III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

#### **1-modul. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanining nazariy asoslari**

##### **1-mavzu. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanining maqsad va vazifalari**

O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiy-badiiy hodisalar – davrlashtirishning muhim mezonlari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Adabiyotshunoslar tomonidan taklif etilgan davrlashtirish prinsiplari.

Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari. Shu kungacha qo'llanilgan tadqiqot metodlari. Adabiy tahlil usuli. Qiyosiy-tarixiy metodning mumtoz adabiyotni o'rganishdagi afzalliklari. Mumtoz badiiy asarlarni tahlil qilishda yangi metod va yondashuvlar.

##### **2-mavzu. O'zbek mumtoz she'riyatida an'ana va yangilik**

Mumtoz she'riyatda poetik an'ana. An'ana negizida yangilik yaratish tajribasi. Yangilik – ijodiy individuallik asosi. Poetik obrazdagi novatorlik. Poetik mazmunning yangilash tamoyillari Poetik shakldagi yangilanish.

##### **3-mavzu. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti: tarkibi, mumtoz she'riyat rivojida tutgan o'rni**

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti – Sharq mumtoz she'riyatidagi yuksalish timsoli. Kulliyotning devonlarga bo'linish tamoyillari. Kulliyot kompozitsiyasining mukammalligi. Kulliyotning janrlar tarkibi.

##### **4-mavzu. "Bilimlar uchligi". Badiiy san'atlar tasnifi, mumtoz she'riyatda qo'llanishi**

Sharq she'rshunosligida "bilimlar uchligi"ning o'rni. Badiiy ilmi va uning mumtoz she'riyatdagi o'rni. Aruz ilmi – mumtoz poetikaning asosi sifatida va uning taraqqiyot bosqichlari. Qofiya ilmi: mohiyati, ilmiy tasnifi va mumtoz poetikada tutgan o'rni.

Badiiy san'atlar tasnifi. Lafziy san'atlar va ularning she'r badiiyatini ta'minlashdagi maqomi. Ma'naviy san'atlar va ularni qo'llashdagi o'ziga xosliklar. Mushtarak san'atlarning poetik tafakkur rivojidadagi o'rni.

##### **5-mavzu. Aruz nazariyasining asosiy masalalari**

Aruzning paydo bo'lishiga doir qarashlar. Hijo va bo'g'inning farqi. Rukn va bahr tushunchalari haqida ma'lumot. Vasil hodosasi. Bahrlar va ularning tarkibiy tuzilishi. Bir xil asliy ruknlardan tarkib topgan bahrlar. Turli asliy ruknlar va ularning taprimoqlaridan tarkib topgan bahrlar. Alisher Navoiy, Bobur va Furqat g'azallarida aruzning qo'llanishi.

Mumtoz aruzshunoslik. Shayx Ahmad Taroziy va uning «Funun ul-balogʻa» asari. Turkiy aruzshunoslik rivojida Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarining tutgan oʻrni. Boburning «Risolai aruz»i va aruzshunoslik takomili. Aruzshunoslikning bugungi darajasi.

Zamonaviy sheʼriyatda aruzning qoʻllanishi. Erkin Vohidovning «Yoshlik devoni»da aruz. Abdulla Oripov aruzi. Sirojiddin Sayyid sheʼriyatida aruzning oʻrni.

### **6-mavzu: Mumtoz sheʼriyatda qofiya va radif**

Qofiya ilmi haqida umumiy maʼlumot. Qofiyaning oʻzak tarkibiga koʻra turlari: mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas qofiyalar. Qofiyalarning tuzilishiga koʻra turlari: muqayyad va mutlaq qofiya. Radif va hojib.

### **2-modul. Mumtoz adabiyotda badiiy ijod masalalari**

#### **7-mavzu: Mumtoz shoirlar asarlarida ijodkor shaxsiyati va dunyoqarashi uygʻunligining yoritilishi**

Eʼtiqod va dunyoqarash – ijodiy kamolot manbai sifatida. Alisher Navoiy eʼtiqodining asarlaridagi ifodasi. Buyuk mutafakkir asarlarida shaxsiyat va dunyoqarash mutanosibliigi masalasi. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida Alisher Navoiy eʼtiqodi va dunyoqarashining yoritilishi. Bobur, Ogahiy va Furqat asarlarida ijodkor shaxsi va dunyoqarashi ifodasi.

#### **8-mavzu. Alisher Navoiy “Xamsa”si muqaddimasi**

“Xamsa” muqaddimasi kompozitsiyasi. Basmalada muallif ijodiy niyati talqini. Ahli rad va ahli qabul taʼrifi. Hamd, munojot va naʼtlar mohiyati, badiiyati. Muqaddimaning asar umumsujetida tutgan oʻrni.

#### **9-mavzu. “Xamsa”da Alisher Navoiy ijodiy kontsepsiyasining badiiy talqini**

“Xamsa”da ijod mohiyati va ijodkor tutumi haqidagi qarashlar ifodasi. Alisher Navoiy va salafarlari munosabatining asarda aks etishi. Alisher Navoiy va Nizomiy Ganjaviy. Alisher Navoiy va Xusrav Dehlaviy. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy.

#### **10-mavzu. “Xamsa” kompozitsiyasi. Alisher Navoiyning xamsanavislikda tutgan oʻrni**

“Xamsa” – universal janr sifatida. Alisher Navoiy “Xamsa”si – Sharq xamsachiligi choʻqqisi. “Xamsa” kompozitsiyasining salafarlari “Xamsa”lari poetik tuzilishi bilan qiyosiy tahlili. Alisher Navoiy “Xamsa”sining kompozitsiya jihatidan oʻziga xosligi. Kompozitsiyaning asar poetik qimmatini belgilashdagi oʻrni.

### **11-mavzu. Alisher Navoiyning adabiy tur va janrlarga doir qarashlari**

Alisher Navoiyning nazm va nasrga doir nazariy fikrlari, ularning adabiy-estetik qimmatini. Buyuk mutafakkir asarlarida mumtoz poetik janrlar tavsifi va tasnifi. «Xamsa»da masnaviy ta'rifi. Alisher Navoiyning she'riy janrlarga oid qarashlari.

### **12-mavzu. Alisher Navoiy asarlarida janrlar poetikasi**

Alisher Navoiy asarlarining janrlar bo'yicha tasnifi. Lirik, epik va liro-epik janrlar. Buyuk shoir asarlarida mumtoz she'riy janrlar poetikasi. Navoiyshunoslikda shoir asarlari janr xususiyatlariga doir qarashlar talqini.

### **13-mavzu. Alisher Navoiyning tilga doir qarashlari. Mumtoz badiiy asarlar tili**

Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida milliy til va unga munosabatning aks etishi. Mutafakkirning til va jamiyatga doir qarashlari. Ikki til muhokamasi.

Mumtoz badiiy asar tili. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari.

### **14-mavzu: Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari**

Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'z ichiga olgan asosiy asarlari. Navoiyning badiiy so'zga munosabati. Navoiy so'zda mazmun va badiiy shakl uyg'unligi haqida. Navoiyning badiiy asarda haqqoniylikka oid qarashlari. Navoiyning badiiy ijod tabiati va unga qo'yiladigan talablar haqidagi qarashlari.

## **IV. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi.

### **Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanining maqsad va vazifalari
2. Alibek Rustamiyning "Navoiyning badiiy mahorati" asarini o'rganish
3. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti matni ustida ishlash
4. Yoqubjon Ishoqovning "Navoiy poetikasi" kitobi bo'yicha munozara
5. Yoqubjon Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" asari tahlili
6. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari matni ustida ishlash
7. Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida she'riyat nazariyasiga doir qarashlar
8. Anvar Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" asari tahlili.

9. Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarining tahlili
10. Alisher Navoiy “Xamsa”sining muqaddimasi matni ustida ishlash
11. Alibek Rustamiyning “Adiblar odobidan adablar” kitobi va Sul-tonmurod Olimning “Xamsa”ning bismillo-si” maqolasi yuzasidan munozara
12. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari matni ustida ishlash
13. Abdurashid Abdug’afurovning “Buyuk beshlik saboqlari” asarini o’rganish
14. Akademik Aziz Qayumovning “Xamsa” dostonlariga doir tadqiqotlari tahlili
15. Abduqodir Hayitmetovning “Navoiyxonlik suhbatlari” kitobi yuzasidan munozara
16. Uzoq Jo’raqulovning Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi” monografiyasi tahlili
17. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni matni ustida ishlash
18. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asarini o’rganish
19. Bobur nazmiy asarlari tahlili asosida shoir she’riyatida badiiy mahoratning aks etishi masalasini o’rganish
20. “Boburnoma” matni ustida ishlash
21. Boborahim Mashrab she’riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko’lami
22. Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni matni ustida ishlash
23. Feruz lirik asarlari matni ustida ishlash
24. Komil Xorazmiy nazmiy asarlarida an’ana va yangilik
25. Muqimiyning badiiy tasvir yaratish mahorati
26. Furqat she’riyatining tasavvufiy-falsafiy va adabiy-estetik manbalari
27. “Mumtoz adabiyot va badiiy ijod” mavzuida ijodiy ish yozish.
28. O’tilgan badiiy asarlar mualliflaridan biri va asarlardagi biron qahramonga oid badia ijod qilish.

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy asar tahlili alohida ilmiy-amaliy jarayon sifatida qaraladi. Ushbu fan ham barcha tur va janrdagi adabiy asarlar tahliliga bag’ishlangan bo’lib, zamonaviy adabiyotshunoslikda qo’llanilayotgan tahlil metodlaridan biridir. Ushbu fan doirasida adabiyotshunoslikdagi ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalari jalb qilinadi hamda kompyuter yordamida badiiy asarni o’rganish tamoyillariga amal qilingan holda badiiy tahlilga kirishiladi. Jamiyatni demokratlashtirish jarayonida va iqtisodiyotni bozor tamoyiollari asosida isloh qilishda ushbu fan yoshlarni mustaqil fikrlashga o’rgatadi va barcha tahlil jarayonlariga ijodiy yondoshishni shakllantirishga yordam beradi.

**Izoh:** Mazkur ro’yxatdagi mavzulardan amaliy mashg’ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

## V. Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Alisher Navoiy g'azallarini sharhlash.
2. Ruboiy haqidagi nazariy qarashlar va Alisher Navoiyning ruboiynavislik mahorati yuzasidan mustaqil ish yozish.
3. Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarini o'rganish.
4. Yoqubjon Is'hoqovning "Navoiy poetikasi" kitobini o'rganish va konspektlashtirish.
5. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoniga doir tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish.
6. "Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlarni o'rganish va tasnif qilish.
7. "Layli va Majnun" bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish.
8. Alisher Navoiy lirikasi bo'yicha himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari avtoreferatlari bilan tanishish va ularga taqriz yozish.
9. Y.E.Bertelsning Alisher Navoiy ijodi bo'yicha yaratgan ishlari annotatsiyali bibliografiyasini tuzish.
10. Aziz Qayumovning Alisher Navoiy diniy-ma'rifiy asarlariga doir tadqiqotlarini o'rganish va konspektlashtirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

**Izoh:** Mazkur dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar

1. Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Тошкент: Тамаддун, 2018.
2. Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.



3. Алишер Навоий: комусий лугат (Масъул мухаррир: Ш.Сирожидинов). I-II жилдлар. – Тошкент: Шарк, 2016.

#### Qo‘shimcha adabiyotlar

4. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
5. Ш. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Ш.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. –Т.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 у., 6-son, 70-modda.
9. Борев Ю.Б. Теоретическая история литературы/ Теория лелературы. Т.4: Литературный процесс.- Москва, 2001.С. 130-468.
10. Хондамир. Мақорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018.
11. Ҳожиахмедов А. Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия малоҳати. – Т.: Шарк, 1998.

#### Internet manbalari

12. [www.lectures.ndpi.uz](http://www.lectures.ndpi.uz)
13. [www.news.uzreport.uz](http://www.news.uzreport.uz)
14. [www.folklore.ru](http://www.folklore.ru).
15. [www.folksentr.ru](http://www.folksentr.ru)
16. [www.folklore.tomsk.ru](http://www.folklore.tomsk.ru)
17. [www.ruthenia.ru](http://www.ruthenia.ru)